

So'nggi yillarda O'zbekistonda adabiy tarjima sohasiga katta e'tibor berilmoqda va yangi avlod yozuvchilarining asarlari ham chet tillarga tarjima qilinmoqda. Zamonaviy o'zbek adabiyotidan chet tillarga tarjima qilingan asarlar: Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani, Erkin A'zamning "Shovqin" va boshqa hikoyalari, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va "Isyon va itoat" romanlari, Jamol Kamolov va Muhammad Yusufning she'riy to'plamlari, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalar to'plami, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalari, Shavkat Rahmon, Salomat Vafo, Usmon Azimning she'riy to'plamlari Nazar Eshonqul ning "Maymun yetaklagan odam" va boshqa hikoyalari ingliz va rus tillarga tarjima qilingan.

Bu ro'yxatda zamonaviy o'zbek adabiyotining benazir yozuvchisi **Isajon Sulton** nomini alohida ta'kidlashni lozim deb bildim. Isajon Sultonning asarlari o'zining badiiy yuksak saviyasi, chuqur falsafiy mazmuni va betakror obrazlar tizimi bilan ajralib turadi. Yozuvchining asarlarida sharqona donishmandlik, sufiylik falsafasi va zamonaviy dunyoqarashlari uzviy bog'lanib ketgan. Isajon Sultonning asarlari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijning bir qator mamlakatlarida ham e'tirof etilib yusak unvonlarga sazovor bo'lgan. Yozuvchi o'zbek adabiyotini xalqaro miqyosga olib chiqqan ijodkorlardan sanaladi. Masalan, 2011-yilda **"Qismat"** hikoyasi AQSHning Chikago shahrida chop etiladigan **"Leksikon"** adabiy jurnali tomonidan e'lon qilingan xalqaro tanlov g'olibi deb topilgan. 2014-yilda **"Bog'i Eram"** hikoyasi Turkiyaning Alaniya shahrida chiqadigan **"Guncel Sanat"** jurnalining xalqaro adabiy tanlovida g'olib deb topilgan. 2017-yilda "Shamolli kecha" hikoyasi B.B.Bianki nomidagi Rossiya-Belorussiya xalqaro adabiy tanlovining maxsus sovriniga sazovor bo'lgan. [9,379]

Keyingi yillarda hikoya va romanlari bilan kitobxonlar e'tiborini qozonayotgan Isajon Sulton asarlari turk kitobxonlarini ham befarq qoldirmayapti. Adib hikoyalari Turkiyaning markaziy jurnallarida chop etilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanma va o'zbek adabiyotidan tuzilgan antologiyalardan joy olgan. Yozuvchi hikoyalari kitobxonlarga ziyrak tarjiymon, o'zbek madaniyati ixlosmandi Husayn Oqboosh bilan birgalikda kitob holida tarjima qilinadi. Tarjima qilingan hikoyalar mas'ul muharrir Otaturk universiteti dotsenti, o'zbek adabiyoti va folklorining zahmatkash tadqiqotchisi Husayn Boydemirga yuboriladi. Husayn Boydemir nihoyatda sinchkovlik bilan tarjimani ko'zdan kechirib qiyoslaydi. Kitob shu tarzda jarayonlardan o'tib nashriyotga beriladi va Guncel Sanat jurnalining Baygenç nashriyotida taniqli yozuvchi Arslan Bayir so'zboshisi bilan chop qilinadi. To'plamga yozuvchining 8 ta hikoyasi kiritilgan. "Shamolli kecha", "Bog'i Eram", "Mansub-1984", "Qo'riqchi" (M.Yo'ldoshev tarjimasi), "Farishta", "TODD", "Sofiya" (Husayin Boydemir tarjimasi), "Qismat" (Isajon Sulton tarjimasi) [10,362]

Uning mashhur "Boqiy darbadar", "Navoiy", "Beruniy", "Bilgaxoqon" kabi yigirmaga yaqin asarlari rus, ingliz, turk, ozarbayjon kitobxonalari tomonidan katta qiziqish bilan mutolaa qilinmoqda. Buni Isajon Sulton ijodi bo'yicha yozilgan ilmiy maqola, taqriz, adabiy suhbat va maktublar jamlangan "Yetuklik jozibasi" deb nomlangan to'plamda keltirilgan xorijlik yozuvchi, tadqiqotchi va talabalarning yo'llagan maktublarida bitilgan fikr-mulohazalardan bilib olsak bo'ladi. Shulardan argentinalik yozuvchi **Viktoriya Kasersning** "Isajon Sulton bilan O'zbekistonga sayohat" nomli maqolasi e'tiborimni tortdi. Maqolada muallif "olti bosqichli tanishuv nazariyasi"ni adabiyot orqali bog'lanish imkoniyatlari bilan boyitib, o'zining o'zbek adabiyoti bilan tanishish yo'lini tasvirlaydi. Avval Borxesning "Marvlik Hakim" asari orqali O'zbekiston haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lgan muallif, keyinchalik AQSHning Ayova shtatida tashkillangan xalqaro yozuvchilar dasturida o'zbek shoiri A'zam Obidov bilan uchrashib, uning orqali o'zbek madaniyati bilan yaqindan tanishadi. So'ngra yozuvchi Isajon Sulton bilan o'rnatilgan do'stlik tufayli o'zbek adabiyoti xususiyatlarini chuqurroq anglaydi va uning "Qismat" hikoyasidagi ramziylik, majoziylik kabi badiiy vositalarni tahlil qiladi. Maqola Argentina va O'zbekiston adabiyoti o'rtasida o'zaro aloqalar va madaniy ko'priklar qurish g'oyasi bilan yakunlanadi.[11/357] Yana bir AQSHning Michigan universiteti tadqiqotchisi **Kristofer Fortning** "Isajon Sulton va Postmodernizm" mavzusidagi maqolasida Isajon Sulton ijodining G'arb adabiy an'analari kontekstida tahlili amalga oshirilgan. Muallif yozuvchining asarlarini postmodernizm, indianist adabiyoti, magik realizm va postsovet adabiyoti nuqtai nazaridan o'rganadi. Tadqiqotchi

I.Sulton ijodining o'ziga xosligini, uning postmodernistik elementlarni an'anaviy bayon uslubi bilan uyg'unlashtirish, inson va tabiat munosabatini tasavvufiy qarashlar asosida qayta anglash, globallashuvga nisbatan murakkab munosabatini ko'rsatadi. Maqolada "Boqiy darbadar" romani, "TODD", "Sofiya" va boshqa asarlar tahlili orqali yozuvchining badiiy kontseptsiyasi ochib berilgan. Tadqiqotchi Isajon Sulton ijodining betakrorligi – indianistik yondashuvning tasavvufiy g'oyalar bilan uyg'unlashuvida ekanligini ta'kidlaydi va uning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish istagini bildiradi.

Yuqorida keltirilgan maqolalardagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, tarjimashunoslik va xalqaro adabiy turizm o'rtasidagi aloqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzu sanaladi. Chunki, adabiy merosni xalqaro miqyosda tanitish bevosita milliy adabiyot namunalari boshqa tillarga tarjima qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida chet ellik kitobxonlarni o'sha adabiyot yaratilgan makonlarga tashrif buyurishga undaydi. Tarjima – ikki millat o'rtasida madaniy ko'priq vazifasini bajaradi. Tarjima qilingan asarlar asosida o'tkaziladigan xalqaro adabiy anjumanlar, festivallarga xorijiy mehmonlarning tashrifi adabiy turizmning muhim qismidir. Tarjimashunoslik sohasini rivojlantirish orqali milliy adabiyotning jahon miqyosida tanilishi, o'z navbatida, iqtisodiy manfaat keltirish bilan birga, madaniyatlararo muloqotni ham kuchaytiradi.

Xulosa: tanitish yo'lidagi har qanday sa'y-harakatlar avvalo adabiy hamjamiyat, so'ngra mahalliy aholi va turizm industriyasiga foyda keltiradi. Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mahalliy aholini jalb qilish muhimdir. Adabiy turizm madaniy qadriyatlarni targ'ib etishning eng samarali usuli bo'lib, yozuvchilar ijodi orqali milliy o'zlikni asrash uni dunyo miqyosida tanishtirishga xizmat qiladi. Adabiy turizm sohasini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, barqaror rivojlanish tamoyillari va xalqaro hamkorlik zarur. O'zbekiston madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan madaniy meros va tarixga ega bo'lgan mamlakatdir. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, hududida ko'plab me'moriy yodgorliklari, qadimiy qal'a obidalari, sirli hamda noyob tabiati, rang-barang afsonalarga boy xalq og'zaki ijodi namunalari va bebaho adabiyoti bilan jahon madaniyatda yetakchi mavqega ega. Biz kabi yoshlar oldida, O'zbekiston adabiy merosini xalqaro maydonlarda tanitish, adabiy an'analarni davom ettirish va o'zimizdan keying yosh avlodga uzatish, yozuvchilarni xotirasini abadiylashtirish kabi bir qator vazifalar turadi. Bularni amalga oshirishda adabiy turizm sohasida jahon standartlariga mos keladigan yangi innovatsion loyihalarni shakllantirish va bu harakatlarni rag'batlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>
2. <https://wah.news/pages/1>
3. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/literary-tourism-sector-outlook>
4. <https://daryo.uz/k/2019/05/07/ozbekistonda-abdulla-oripov-xotirasiga-bagishlangan-oltin-soz-xalqaro-adabiyot-festivali-otkaziladi>
5. <https://oyina.uz/uz/article/949>
6. Bakirovna K. Z. The Rhythm of the Literary Impact. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(9), 2019.
7. Qobilova Z., & Binnatova, A. SHARQ MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK MASALALARINING NAZARIY ASOSLARI. Interpretation and researches, 1(1), 2023.
8. Tursunova, N. FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 2021.
9. Nazarov B., Sattorova G., Qo'chqorova M. Isajon sulton nasri va badiiyati – Toshkent; 2017.

EKOLOGIK TURIZM VA YASHIL INFRATUZILMA: BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Muslimaxon Sotvoldiyeva G'ayratjon qizi

FDTU, Tayanch doktoront

Abduqodirova Layloxon Sultonali qizi

FDTU ICHB fakulteti Biznes boshqaruv yo'nalishi talabasi

[E – mail: abduqodirova4242@icloud.com](mailto:abduqodirova4242@icloud.com)

Annotatsiya: Barqaror turizm atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan, mahalliy jamoalar manfaatlarini hisobga oladigan va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan yondashuvdir. Ushbu maqolada ekologik turizmning asosiy prinsiplari, yashil infratuzilmani joriy etish muhimligi va barqaror turizmning atrof-muhitga ijobiy ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalar va ekologik yondashuvlar turizm sanoatining uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Barqaror turizm nafaqat tabiatni asrash, balki mahalliy iqtisodiyotga ham foyda keltirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, ekologik yondashuv, yashil infratuzilma, atrof-muhit, mahalliy iqtisodiyot.

Kirish: Bugungi kunda turizm sanoati jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Biroq, turizmning atrof-muhitga va mahalliy jamoalarga salbiy ta'siri masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli, barqaror turizm tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi – ekologik yondashuvlar va yashil infratuzilmaning barqaror turizmga o'rnini tahlil qilish hamda ushbu yo'nalishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Asosiy qism: Tadqiqotda adabiy manbalar tahlili, so'rovnoma va statistik ma'lumotlar tahlili qo'llanildi. So'rovnoma turizm sohasi mutaxassislari va sayyohlar orasida o'tkazildi.

Natijalar: Ekologik yondashuvlar qo'llanilgan hududlarda chiqindilar miqdori kamaygani, energiya samaradorligi oshgani va biologik xilma-xillik saqlangani aniqlandi. Yashil infratuzilma rivojlangan hududlarda turistlarning ekologik ong darajasi yuqoriligi kuzatildi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizmning barqaror rivojlanish talablariga mos tarzda kechib boradi. Ekologik turizm va uning huquqiy jihatida turizm sohasi rivoji uchun eng muhim huquqiy masalalar sirasiga kiradi. Ekologik turizmda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolar borasida A. Demkina, A. Shelygov, S. Rebina, A. Maksimenkolar ilmiy izlanishlar olib borib, huquqiy va moddiy jihatning ahamiyatini ko'rsatib o'tishgan. Ekologik turizmda huquqiy yondashuv hamda hujjatlarni to'g'ri yurgizish borasida Nimatullayev, Kozlov va Zvyaginstsevalar maqolalarida o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Bacon, Do va boshqalar ekoturizmning ta'lim olish, ish o'rinlarining yaratilishi va rekreatsiya masalalarida ahamiyatining beqiyosligini ta'kidlasa, Nino, Saenz-de-Miera va Russelo kabi olimlar bu kabi foydali jihatlarini tabiiy resurslar dan foydalanish oqibatida atrof-muhit bilan bog'liq turli salbiy oqibatlar yuzaga kelishidan xavotir olib, tabiiy resurslardan 1 Sokolova A., Feoktistova V., Rybakova A., Gorokhova A., Kirichenko E. Social and legal mechanisms for stimulating the development of ecotourism: International practice and the possibilities of its application. 2021 foydalanishning huquqiy jihatiga katta e'tibor berish zarurligini ta'kidlashgan. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra ekoturizm ayniqsa barqaror turizmni ommaviylashtirish maqsadida so'nggi 15-20 yillikda turli huquqiy mexanizmlar ishlab chiqildi va bu hol ekologik turizmning rivojlanib borishiga zamin yaratmoqda. Honey o'z islanishlarida turizmning bu yo'nalishini sertifikatlashtirish va akkreditatsiyadan o'tkazish tomonlariga e'tibor qaratib, ushbu jarayon harakatlarning qanchalik huquqiy tomonlama amal qilinayotganligini kuzatish imkonini berishini ta'kidlagan. Keltirib o'tilgan tadqiqotlarga suyanagan holda e'tirof etish mumkinki, ekologik turizm faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi har jihatdan uning huquqiy hamda moddiy bazasi bilan uzviy bog'liq. Va bu borada bizning yurtimizda maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy va metodologik ahamiyat kasb etadi.

Muhokama: Barqaror turizmni rivojlantirish uchun ekologik standartlarni kuchaytirish, yashil infratuzilmani kengaytirish va mahalliy hamjamiyatlar ishtirokini oshirish zarur.

Texnologik innovatsiyalar va ekologik ta'lim barqaror turizmni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida belgilanadi.

Mamlakatimizda ekoturizmning rivojlanishiga bo'lgan e'tibor nafaqat ma'naviyatimiz, madaniyatimiz, tabiatimizni muhofaza qilish, ekoturistlar oqimini ko'paytirish, biologik xilmaxlilikni avaylashda, balki tub aholi turmush tarzining yaxshilanishi, markazdan uzoqda joylashgan tabiiy hududlarda ish o'rinlarining yaratilishida o'zining ulkan hissasini qo'shadi. O'zbekiston hududida yo'qolish xavfi ostida turgan noyob o'simlik va hayvonlarni asrab qolishda ularning turlarini ko'paytirishni maqsad qiluvchi milliy bog'larni yaratish loyihalarini ishlab chiqish, bu orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizmning moddiy va texnik bazasini yaratish uchun "Ekoturizmni rivojlantirish" davlat dasturini ishlab chiqish zarur bo'ladi². O'zbekiston turizm sohasi bo'yicha dunyoda ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlatlar sirasiga kiradi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros ob'yektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKOning ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlarni ochish imkoniyati mavjud. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb qilgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Turizm va madaniy meros vazirligining 2022yilga qadar bo'lgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha matbuot anjumanidagi hisobotiga ko'ra, shu davrga qadar Respublika bo'ylab jami 3384 ta mehmonxona faoliyat olib borayotgan bo'lib, ularning 133 tasi yangi qurilgan, 1946tasi hostel, 210 tasi yangi ko'rinishga keltirilgan mehmonxonalardan iborat. Bundan tashqari turizm industriyasi infratuzilmasini yanada yaxshilash maqsadida 1747 ta turistik yo'l ko'rsatkichlari o'rnatilgan. Aholi gavjum joylarda turistlarga yengillik yaratish uchun yurtimiz bo'ylab jami 1502 ta sanitariya-gigiyena shoxobchalari qurib topshirilgan. Bundan tashqari Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga asosan, 2022-2023-yillar davomida "Sanitariya inqilobi" loyihasining amalga oshirilishi soha rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor yanada ortishi ushbu sohada qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda ham o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199 sonli Farmoni va 2021-yil 6-apreldagi "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5054-sonli qarori mazmunan yurtimizda turizm industriyasining yanada rivojlantirish uchun maqbul sharoitlar yaratish uchun zamin yaratdi. Unga ko'ra, sohada faoliyat yuritishni maqsad qilgan yosh tadbirkorlarga davlat hisobidan maqsadli grantlar ajratish, O'zbekistonga charter reyslarni tashkil etishda kuzatilayotgan xarajatlarning ma'lum qismini davlat tomonidan qoplab berish, turistlar oqimini kengaytirish uchun mehmonxonalar tizimida 1 Oybek Ostanov. O'zbekistonda turizm qay ahvolda va uni rivojlantirish uchun nimalar kerak-mutaxassis takliflari. ham qator yengilliklar berish, turizm sohasida ishlayotgan xodimlar faoliyati samaradorligini oshirish uchun moddiy rag'batlantirish masalalari sohadagi muhim jihat sifatida qaralmoqda³. Turizm infratuzilmasini shakllantirish va uni rivojlantirishga qaratilgan harakatlar bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda. O'zbekistonning yirik turistik imkoniyatlaridan foydalanish borasida olib borilayotgan izlanishlar, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishga qaratilgan harakatlar, yangidan-yangi turizm sohalarini yo'lga qo'yilayotganligi fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi. Dunyo hamjamiyatining ekologik turizmga bo'lgan alohida e'tibori bu sohaning O'zbekistonda ham rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga bo'lgan intilishini kuchaytirishga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232 sonli Qaroriga binoan Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi hamda Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi O'zbekiston bo'ylab ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha turli turistik paketlarni shakllantirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Xulosa

Asosiy xulosalar Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologik yondashuvlar va yashil infratuzilma barqaror turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ekologik standartlarga rioya qilish tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Yashil infratuzilma sayyohlik infratuzilmasining barqarorligini ta'minlab, ekologik ta'sirni kamaytirishga yordam beradi.

Tavsiyalar

1. Turizm sohasida ekologik sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish
2. Yashil infratuzilmani rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish
3. Mahalliy hamjamiyatlarni ekologik barqarorlikka yo'naltirish
4. Sayyohlarga ekologik mas'uliyat haqida targ'ibot va ta'lim berish
5. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni ekoturizmga integratsiya qilish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q. (2019) *Ekologik turizm va uning rivojlanish tamoyillari*
2. Jo'rayev M. (2021) *Barqaror turizm asoslari*
3. Karimov A. (2018) *Ekoturizm va atrof-muhit muhofazasi*
4. Tursunov Sh. (2020) *O'zbekistonda yashil infratuzilma va turizm*
5. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (2022) *Barqaror turizm konsepsiyasi*

ADABIY TURIZM VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Po'latova Ruxshonaxon,

Qo'qon universiteti,

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ruxshonapolatova77@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada adabiy turizmning mohiyati, uning madaniy va iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. O'zbekistonda adabiy turizm uchun mavjud salohiyat va imkoniyatlar, yozuvchilarning hayoti bilan bog'liq muqaddas maskanlarning turizm markazlariga aylantirilishi muhokama qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, marketing strategiyalari va xalqaro hamkorlikning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida adabiy turizmni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Ushbu ish adabiyot ixlosmandlari, tadqiqotchilar va turizm sohasi mutaxassislari uchun foydali manba bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, marketing strategiyalari va xalqaro hamkorlikning bu sohadagi o'rni keng yoritiladi. Bunday ilmiy ishlar adabiyot ixlosmandlari, tadqiqotchilar va turizm sohasi mutaxassislari uchun muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Adabiy turizm, madaniy meros, innovatsion yondashuv sayyohlik markazlari, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish: Adabiy turizm – madaniy turizmning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u mashhur yozuvchilar hayoti va ijodi bilan bog'liq joylarni ziyorat qilish, adabiy asarlarda tasvirlangan makonlarni o'rganish orqali sayyohlarga yangi tajriba taqdim etadi. Bu turizm turi nafaqat adabiyotga qiziqish uyg'otadi, balki milliy va jahon adabiy merosini asrab-avaylash hamda targ'ib qilishga xizmat qiladi. O'zbekistonda Navoiy, Bobur, Furqat, Oybek kabi buyuk adiblarning ijodi bilan bog'liq joylar mavjud bo'lib, ularni turizm markazlariga aylantirish katta ahamiyat kasb etadi. Adabiy turizmni rivojlantirish orqali mamlakatga xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilish, madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda iqtisodiy jihatdan yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Mazkur maqolada adabiy turizm tushunchasi, uning ahamiyati va rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, adabiy turizm yosh avlodni milliy adabiyotimizning buyuk namoyandalari bilan yaqindan tanishtirish, ularning ijodiy merosini chuqur o'rganish va ularga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, adabiyot